

## Ishlab chiqarish korxonasida 5+1 dasturi asosida dars mashg'ulotlari davom etmoqda

Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakultetining 3 kurs talabalariga Traktorlar va transport vositalari va Qishloq xo'jaligi mashinalari fanlaridan dars mashg'ulotlari rejalashtirilgan. 5+1 dasturi asosida talabalarga rejalashtirilgan dars mashg'ulotlari "UzKlaasAgro" QKda joylashgan o'quv xonasida qo'shma korxonada bosh mutaxassisi X.M.Babaev va Traktor va Avtomobillar kafedrasida assistenti R.Xudaykulov hamkorligida o'tkazib kelinmoqda.



Talabalarga korxonada ishlab chiqarilayotgan traktorlar va qishloq xo'jaligi texnikalari haqida, ularda qo'llanilgan innovatsion yechimlar haqida boshlang'ich ma'lumotlar berilib, dars davomida traktorlarni paydo bo'lish tarixiga va traktorlarga qo'yiladigan talablarga aloxida to'xtalib o'tildi. Talabalar ishlab chiqarish korxonasida tashkil qilingan dars mashg'ulotidan o'zlariga foydali ma'lumotlarni olishmoqda.



**TIQXMMI matbuot xizmati**